

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 114 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiyoy Mamasoliyevna	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinislo Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeva	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	



MAMLAKATIMIZDA INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

Aminov Farrux Farxadovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili amalga oshirilgan, innovatsiyalarni moliyalashtirish bo'yicha dunyoning yetakchi olimlari fikrlari o'rganilgan, 2019–2023-yilda Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar sohalar, viloyatlar kesimida kesimida tahlili amalga oshirilgan, mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning takomillashtirish bo'yicha asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, investisiya, start-up, xorijiy kapital, resurs, korxona.

Abstract: In the article, an analysis of the current state of innovation financing in our country was carried out, the opinions of the world's leading scientists on the financing of innovations were studied, and the projects financed by the Science Financing and Innovation Support Fund in 2019–2023 were analyzed by sectors and regions. Increased, substantiated conclusions and proposals on the improvement of innovation financing in our country were developed.

Key words: Innovation, investment, start-up, foreign capital, resource, enterprise.

Аннотация: В статье проведен анализ современного состояния финансирования инноваций в нашей стране, изучены мнения ведущих мировых ученых по вопросам финансирования инноваций, проанализированы проекты, финансируемые Фондом финансирования науки и поддержки инноваций в 2019–2023 годах по отраслям и регионам. На основе полученных данных сделаны обоснованные выводы и предложения по совершенствованию финансирования инноваций в нашей стране.

Ключевые слова: Инновации, инвестиции, стартап, иностранный капитал, ресурс, предприятие.

KIRISH

Jahonda jadal investitsion siyosatni amalga oshirish, hududlarda qulay va jozibador investitsion muhitni yaratish, xorijiy investitsiyalarni moliyaviy rag'batlantirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish va hududlarda investitsiya faolligini oshirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda. Qulay investitsion muhitni yaratish, iqtisodiyotni sarmoya bilan ta'minlash, investitsion faoliyatning jozibadorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etishi o'rganilgan va tadqiq etilgan. Investitsiya loyihalari samaradorligini iqtisodiy baholash uslubiyotlari, korxonalar investitsion va innovatsion faoliyati samaradorligini aniq belgilab beruvchi mexanizm yetarlicha ilmiy tadqiq qilinmagan.

O'zbekistonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard AQSH dollari xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish, investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish, 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalariga 14 milliard AQSH dollariga teng investitsiya jalb etish choralarini ko'rish ^[1] belgilab berildi.

Biroq, bugungi tezkor o'zgarish va yangilanishlar davrida mazkur yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, yangidan-yangi, bugungi hayotimiz talabiga asoslangan innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ishlarini yanada jadallashtirish maqsadga muvofiqdir.



ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili bo'yicha dunyoning bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib. Jumladan, rus iqtisodchi olimi I.T.Balabanov fikriga ko'ra: "innovatsiya – nazorat, hisob, rejalashtirish usuli, tahlilga qabul qilishning yangi shakllarini qamrab olgan holda yangi texnika va texnologiyaga, ishlab chiqarish, mehnat, xizmat ko'rsatish, boshqarishni tashkil etishning yangi shakliga kapitalni kiritishdan olingan moddiylashgan natijani o'zida namoyon etadi" [2].

Shuningdek, A.B. Borisov innovatsiyalarni quyidagicha ta'riflaydi: "innovatsiya texnologiyalarning yangi turlarini ishlab chiqish, yaratish va tarqatish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga qaratilgan ijoiy faoliyat natijasini anglatadi" [3].

V.G. Medinskiy olib borgan izlanishlari asosida quyidagi xulosaga kelgan: "innovatsiya sifatida olib borilgan ilmiy-tadqiqot yoki avvalgiga o'xshash turidan sifat jihatdan farq qiluvchi yangisining yaratilishi natijasida ishlab chiqarishga joriy etilgan obyekt tushuniladi" [4].

Rus olimlaridan V.V.Glushchenko, V.V.Glushchenkolarning mazkur atamaga bergan ta'riflari quyidagichadir: "innovatsiya – tovarlar, xizmatlar va texnologiyalarning firma darajasidagi tashkiliy shakllarning yangi turlarini ishlab chiqish, tayyorlash va tarqatishga yo'naltirilgan ijodiy va investitsion faoliyat natijasi" [5].

R.A. Fatxutdinov esa "innovatsiya – obyektning boshqarishni o'zgartirish va iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnikaviy va boshqa turdagi samarani olish maqsadida yangilikni joriy etishning yakuniy natijasi", deb baholaydi [6].

Shunga o'xshash ta'rifni V.L. Popov tomonidan ham berilgan bo'lib, unga ko'ra: "Innovatsiya – bozorda sotiladigan yangi turdagi yoki takomillashgan mahsulotning, amaliyotda foydalaniladigan yangi yoki takomillashgan texnologik jarayonning amalga oshirilishini hosil qiluvchi innovatsiya faoliyatining yakuniy natijasi" [7] deyilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlar ham "innovatsiya" atamasining iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berish bo'yicha katta izlanishlar olib borishgan va o'zlarining zamonaviy talqindagi ta'riflarini ishlab chiqqanlar. Shular jumlasida iqtisodchi-olimlar R.I.Gimush, F.M.Matmurodovlar tomonidan innovatsiya deganda "yangilik va yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi. Bu yangilik zamirida yangi tartibni, yangi odatni, yangi uslubni, kashfiyotni tushunish lozim" [8], deya ta'rif berilgan.

B.E.Toshmurodova, N.Jiyanovalar fikriga ko'ra: "innovatsiya tushunchasi o'z ichiga faqat texnik izlanishlarni olmasdan, balki korxona ishi usulidagi barcha yaxshi o'zgarishlarni (yangi xizmatlar, pastroq narxlar belgilash va boshqa mijozlar uchun qulay sharoitlar yaratish) oladi" [9]. Yuqoridagi olimlarni qarashlaridan ko'rishimiz mumkinki, iqtisodiyotning barcha sohasida innovatsiyalarni qo'llash zamon talabidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili bo'yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma'lumotlarni to'plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI


Bugungi kunda mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida muhim bo'lgan tarmoqlar va sohalarga e'tibor qaratilsa, aksariyat rivojlangan va jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsiyalarning o'rni muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Bizga ma'lumki hozirgi axborot texnologiyalari asrida hamma qanaqadir yangilik qilish bilan kata foyda olishga harakat qilmoqda. Bunda "startup"lar yetakchi o'rinda turibdi. Startup tushunchasi. "Startup" so'zi inglizcha "startup" – "startup" tushunchasidan kelib chiqadi va u endigina yaratilgan yoki yaratilish jarayonida bo'lgan kompaniyani anglatadi. Demak startaplarni yaratishdan oldin mamlakat iqtisodiyotini yaxshilab o'rganish va rivojlanmayotgan sohalarni rivojlantirish uchun yangi loyiharni ishlab chiqish kerak ekan.

Startaplarni moliyalashtirishda O'zbekistonda ham ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Startup loyihalarni moliyalashtirish kollegial organ qarori va buyurtmachining buyrug'iga muvofiq amalga oshiriladi. Startup loyihalarni moliyalashtirish buyurtmachi, talabgor va jamg'arma o'rtasida tuziladigan shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladi. Moliyalashtirilayotgan startup loyihalar ijrochi tashkilotlari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan innovatsion ishlanmanlarni joriy etish ilmiy markazi maqomini olish huquqiga ega. O'zbekistonda startaplarni to'g'risida qonun qabul qilindi. Qonun loyihasiga ko'ra, startaplarni xodimlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etiladi. Startup kompaniyalar yer solig'i, foyda solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va boshqa soliq to'lovlaridan ozod etiladi.







Qonun doirasida xorij fuqarolariga Startap vizalar berilishi ham rejalashtirilgan. Qonun startap, startap-ekotizim, startap akselerator va ko'mak dasturlariga izoh beradi. Unga ko'ra, startaplar-innovatsion tarkibiy qismlarga ega bo'lgan va yuqori tavakkalchilikka asoslangan, o'ziga xos investitsiyalarni talab qiladigan kengaytiriladigan biznes modelini izlash va amalga oshirish uchun mo'ljallangan vaqtinchalik tuzilma hisobalandi.







1-rasm: 2019–2023-yilda Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan start-up loyihalar sohalar kesimida(dona) tahlili¹

Amalga oshirilayotgan startap loyihalarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalar kesimidagi asosiy ulushi (62% yoki 46,1 mlrd. so'mlik 66 ta loyiha) ayni vaqtda dolzarb hisoblangan sog'liqni saqlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda qishloq va suv xo'jaligi sohalariga hissasiga to'g'ri keladi.




1 Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



2-rasm: 2019–2023-yilda Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan start-up loyihalar viloyatlar sohalar kesimida(dona) tahlili²

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki 2019–2023-yilda Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan Toshkent shahrida eng ko'p innovatsiya loyihalari moliyalashtirilgan ya'ni 102 ta, keyingi o'rinlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi 26 ta loyiha, Farg'ona viloyati 23 ta, Namangan viloyati 19 ta, Toshkent viloyati 15 ta, Buxoro viloyati 14 ta, Xorazm viloyati 11 ta, Navoiy viloyati 8 ta, Jizzax viloyati 8 ta, Samarqand viloyati 6 ta, Surxondaryo viloyati 6 ta, Sirdaryo viloyati 6 ta, Qashqadaryo viloyati 6 ta, Andijon viloyati 5 ta start-up loyihalari moliyalashtirilgan.



3-rasm: 2019–2023-yilda Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan start-up loyihalar soni³

² Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
³ Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



3-rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2019–2023-yilda Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan jami 255 ta start-up loyiha moliyalashtirilgan. Shuningdek, 2023-yil yakunlariga ko'ra 76 ta start-up loyihalari moliyalashtirilgan. Ushbu ko'rsatkich yildan-yilga oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Jahon tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki davlat tomonidan qo'llab quvvatlanuvchi innovatsion dasturlar rivojlanayotgan davlatlarni rivojlangan davlatlar qatoriga tezroq olib chiqishi mumkin. Sog'liqni saqlash, ta'lim tizimi va transport sohalariga innovatsiyalarni joriy etish rivojlanayotgan davlat fuqarolarining turmush darajasini tezroq o'sishiga olib keladi. Shu bilan birga, innovatsiyalar xususiy, xorijiy va davlat korxonalari o'rtasida raqobatning kuchayishiga, mehnat bozori egiluvchanligi oshishiga va axborot kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagi ijobiy xususiyatlariga qaramay innovatsiyalarni boshqarish juda murakkab jarayon bo'lib, ularning rivojlanishi va ta'sirini baholash ancha qiyin.

Afsuski ko'pgina rivojlangan davlatlarda yaxshi ta'lim olgan aniq fanlar bo'yicha oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari ko'p bo'lsada, ular mahalliy tadbirkorlarning innovatsion faoliyatida deyarli qatnashmayapti. Yana bir xavotirli holat shuki, rivojlanayotgan davlatlar chet el investitsiyalarini jalb qilishga katta mablag' sarflagan bir paytda, mahalliy startaplarni rivojlantirishga kam e'tibor qaratilyapti. Ishchi kuchining migratsiyasi, ayniqsa, malakali ishchi kuchi ko'chib kelishi mamlakatda innovatsion muhitning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda innovatsion siyosat kichik va o'rta korxonalarda innovatsiyalarni yaratilishini qo'llab quvvatlashi kerak, buni biznes va davlat boshqaruvi tizimi o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish orqali amalga oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish; fan, ixtirolar va texnologiyalari transferini rivojlantirish; innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish; raqobatni rivojlantirish va ma'muriy to'siqlarni qisqartirish; infratuzilma va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish kabi yo'nalishlarni rivojlantirish muhim.

Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishimiz zarur.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekistonga sifatli ilmiy yutuqlarga erishish imkonini beradi, bu esa davlat institutlari reytingidagi pozitsiyalarga ijobiy ta'sir qiladi, mahalliy universitetlarga 500 ta eng yaxshi universitetlar ro'yxatiga kirishga, ilmiy faoliyatning nufuzini oshirishga imkon beradi. Mamlakatning innovatsion iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент. – СПб.: Питер, 2001. – С. 41.
3. Борисов А.Б. Большой экономический словарь, - М.: Книжный мир, 2000. – С. 185.
4. Медынский В.Г. Инновационный менеджмент. – М.: ИНФРА-М, 2002. – С. 28.
5. Глущенко В.В., Глущенко И.И. Исследование систем управления: социологические, экономические, прогнозные, плановые, экспериментальные исследования. 2-е изд. – М.: ООО НПТС "Крылья", 2004. С.30.
6. Фатхутдинов, Р. А. (2004). Инновационный менеджмент. СПб.: Питер, 5
7. Попов В.Л. Управление инновационными проектами. Учебное пособие. – С.: ИНФРА-М, 2009. – С.11.
8. Gimush, R. I., & Matmurodov, F. M. (2008). Innovatsion menejment. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
9. Toshmurodova B.E., Jiyanova N. Innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish. O'quv qo'llanma. – T.: IQTI-SOD-MOLIYA, 2006. – B. 11.
10. Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ma'lumotlari(<https://innofund.uz>)

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.